

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2019 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi:
2 476,3 mlrd. so'm

O'sish sur'ati:
143,0 %

Asosiy kapitalga Investitsiyalar

Markazlashgan investitsiyalar hisobidan:
710,6 mlrd. so'm

Markazlashmagan investitsiyalar hisobidan:
1 765,7 mlrd. so'm

Joriy davrda 2 476,3 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 61,2 %i jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'zmablag'lari hisobidan 38,8 %i moliyalashtirildi.

Markazlashgan manbalari hisobidan:

Respublika byudjeti:
372,2 mlrd.so`m

O'zRMVHSTKTRJ:
2,4 mlrd.so`m

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:
276,9 mlrd.so`m

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar:
59,1 mlrd. so`m

Markazlashmagan manbalari hisobidan:

Aholi mablag'lari :
483,5 mlrd.so`m


Korxona mablag'i:
476,6 mlrd.so`m

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:
366,3 mlrd.so`m

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar:
439,3 mlrd.so`m

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 19,5 %i aholining o'z mablag'lari hisobidan jalb etilgan. Shuningdek, korxona va tashkilotlar hisobidan 19,2 %, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lardan 14,8 %, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 17,7 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 2,4 %, Respublika byudjeti 15,0 %, O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi 0,1 % va Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan esa 11,2 % asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)



- Republika byudjeti
- O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
- O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar
- Korxona mablag'lari
- Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Aholi mablag'lari



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



	mild.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	2 476,3	143,0	100,0
Republika byudjeti	372,2	1 192,9	15,0
O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	2,4	2 350,3	0,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	276,9	203,8	11,2
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	59,1	78,8	2,4
Korxona mablag'lari O'zRMVHSTKTRJ	476,6	84,3	19,2
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	366,3	76,6	14,8
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	439,3	837,1	17,8
Aholi mablag'i	483,5	127,1	19,5




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar




	mld.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	2 476,3	143,0	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon shahar	167,4	1 327,8	6,8
Olmaliq shahar	429,2	161,2	17,3
Angren shahar	64,5	42,8	2,6
Bekobod shahar	76,9	185,0	3,1
Ohangaron shahar	135,8	788,9	5,5
Chirchiq shahar	223,2	217,4	9,0
Yangiyo'l shahar	10,6	36,1	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on tumani	58,7	253,2	2,4
Ohangaron tumani	54,3	95,2	2,2
Bekobod tumani	22,1	51,7	0,9
Bo'stonliq tumani	161,6	246,8	6,5
Bo'ka tumani	10,5	15,1	0,4
Quyichirchiq tumani	17,0	115,8	0,7
Zangiota tumani	148,0	86,3	6,0
Yuqorichirchiq tumani	122,3	178,7	4,9
Qibray tumani	252,4	239,1	10,2
Parkent tumani	34,8	72,9	1,4
Piskent tumani	9,0	30,9	0,4
O'rtachirchiq tumani	102,7	51,6	4,1
Chinoz tumani	147,8	346,9	6,0
Yangiyo'l tumani	125,9	150,6	5,1
Toshkent tumani	101,6	111,2	4,1

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Nurafshon shaharida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 1 327,8 %, Ohangaron shahar 788,9 % va Chinoz tumanida 346,9 %ni tashkil etdi.

Bo'ka va Piskent tumanlarida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan keskin tushishi kuzatildi - 15,1 va 30,9 %. Bunda yirik korxona va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kam jalb etgani.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Olmaliq shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,3 %i o'zlashtirildi.


Shuningdek Olmaliq shahridan keyingi o'rinda Qibray tumani 10,2 %ni tashkil etmoqda.

Chirchiq va Nurafshon shaharlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 9,0 va 6,8 %ni tashkil etdi.

Bo'stonliq, Zangiota hamda Chinoz tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 6,5 va 6,0 %dan tashkil etgan bo'lsa, Yangiyo'l shahar va Bo'ka, Piskent tumanlarida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kami bo'ldi – 0,4 %.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 1 388,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 813,8 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 273,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi.




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1 427,0 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 57,6 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 661,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 26,7 %ini tashkil etdi. Qolgan 15,7 %, yani 388,0 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri kelgan miqdori (ming so'mda)



■ Aholi jon boshiga
investitsiyalar hajmi ■ O'sish sur'ati

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar hajmining hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Ohangaron shahrida – 3 669,8 ming so'm, Nurafshon shahrida – 3 465,3 ming so'm, Olmaliq shahrida – 10 046,5 ming so'm va Chirchiq shahrida – 1 432,0 ming so'mga to'g'ri keldi.

Aksincha eng past ko'rsatkich Bekobod tumanida – 142,5 ming so'm, Piskent tumanida – 90,8 ming so'm va Bo'ka tumanida – 84,4 ming so'm.



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiyy maydoni 292,6 ming kv.m, bo'lgan 1 939 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan, ulardan umumiyy maydoni 254,9 ming kv.m. bo'lgan 1 626 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Toshkent tumanida ishga tushirilgan 63,0 ming kv.m. va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiyy maydonning 21,5 %ini tashkil etdi. Keyingi o'rnlarda Zangiota va Bo'stonliq tumanlari egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiyy maydonning 27,7 va 9,8 %ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Chirchiq shahrida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi viloyatga nisbatan 0,1 %ni tashkil etdi.



**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni:

(71) 230-86-70
(71) 230-86-71